PERIFRAZA TUSHUNCHASI VA UNING TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI

Samarqand davlat universiteti 4-bosqich talabasi Xasanova Madina

Annotatsiya: ushbu maqolada perifraza tushunchasi, uning shakllanishi, o‘zbek va jahon tilshunosligida unga berilgan ta’riflar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: perifraza, tasviriy ifoda, tilshunoslik, o‘zbek tilshunosligi, jahon tilshunosligi.

Perifrazalarni o‘rganish XX asr 70-yillaridan boshlandi. Dastlab rus tilshunosligida V.P.Grigoryev ilmiy ishlarida so'z~obraz~denotat munosabatlari nuqtayi nazaridan lingvistik muammo sifatida “poetik nutqni hosil qilishning eng yorqin, qiziqarli va istiqbolli usullaridan biri” sifatida tasvirlandi[1]. S.Ya.Makarova tadqiqotlarida perifrazalarning badiiy-ekspressiv xususiyatlari, uslubiy figuralar va troplar tizimidagi o'rni va fe'l birikmali tiplari borasida qimmatli mulohazalar bildirilgan[2]. Xususan, Yu.D.Apresyanning “Tilning ma'nodoshlik vositalari va perifrazalash qoidalari” nomli maqolasida perifraza mohiyatini ochib berishga qaratilgan talqinlar tilshunoslarda alohida qiziqish uyg'otdi.

Perifraza termini kelib chiqishi haqida jahon tilshunosligida bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Jemas de Millening “Nutq elementlari” nomli kitobida perifrazaga quyidagicha ta’rif berilgan: **Perifraza** *circumlocution* nomi bilan ham yuritiladi. Ushbu manbaga ko‘ra, **periphrasis** so‘zi XVI asrning 1530-yillaridan ingliz tilida qayd etilgan bo‘lib, **lotincha *periphrasis*** orqali **qadimgi yunoncha *περίφρασις (períphrasis)*** so‘zidan kelib chiqqan. Biroq **periphrasis** atamasi, odatda, ushbu uslubiy vositaning **ta’sirchan maqsadda qo‘llanadigan holatlari**ni bildiradi, *circumlocution* esa uning **noto‘g‘ri yoki nuqsonli qo‘llanishi**ga nisbatan ishlatiladi. **Perifrazaga** biror narsani uning **barchaga ma’lum bo‘lgan belgisi, xususiyati yoki unga aloqador holati orqali bilvosita nomlash** deb ta’rif berish

mumkin. Byork asaridan olingan bir jumlani keltiradi: “Ammo qudratiga qarshi turishga ojiz bo‘lganimiz va irodasiga qarshi chiqish biz uchun mutlaqo nomaqbul bo‘lgan bir Zot bu ishni boshqacha tarzda belgilagan”. Mazkur jumlada Xudoning sifatlari keltirilishi natijasida perifrazaga ishora qilingan.

Jemes de Mille kitobida keltirilishicha perifrazlarning 2 xil maqsadda ishlatiladi: badiiylik va ta’kid, ta’sirchanlik uchun[3]. Bu manbaada perifrazalar narsa yoki hodisani to‘g‘ridan to‘g‘ri nomlamasdan, balki, unga aloqador holatlar orqali bilvosita ifodalash ekanligi ta’kidlangan.

Perifraza qadim yunon grammatikasi va ritorikasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Herbert Weir Smythning ***A Greek Grammar for Colleges*** *kitobida perifraza atamasiga shunday ta’rif beriladi: “Perifraza - biror bir fikrni ifofalash uchun keragidan ko‘proq so‘zlarni foydalanish, masalan, “*θρέμματα Νείλου*” – “Nilning tarbiyalanuvchilari” – ya’ni “misrliklar”*[4]

Merriam-Webster lug‘atida **periphrasis** va **circumlocution** o‘zaro yaqin tushunchalar sifatida ko‘rsatiladi *perifraza terminiga qisqaroq ifodalash mumkin bo‘lgan fikrni uzoqroq qilin ifoda etish tarzida ta’rif beriladi. Shu bilan birga circumlocution* atmasi ham mavjud bo‘lib, keragidan ortiq miqdordagi so‘zlardan foydalanish, nutqda fikrni aylantirib bevosita bayon qilmaslik ma’nosini anglatadi[5].

O‘zbek tilshunosligida perifrazalar ilk bor monografik planda ttilshunos I.Umirov tomonidan o‘rganildi. Perifrazalarning badiiy asarlarda qo‘llanishiga doir maqolasida I.Umarov perifrazalarning she’riy va nasriy asarlardagi vazifalari haqida so‘z yuritadi. Maqolada perifrazalar she’rlarda bir so‘z yoki jumlani qayta takrorlamaslik, poetik jarangdorlik, obrazlilik, ta’sirchanlikni oshirish, balandparvoz tasvirlarni vujudga keltirish, ayni bir tushunchaga ko‘proq e’tiborni jalb qilish maqsadida qo‘llansa, nasrda asar qahramonlarining tavsifi to‘laqonli bo‘lishini, jumlalarning qisqaligini ta’minlash, asar badiiy qiymatini oshirish, qahramonlarning ma’lum bir xususiyatini ochib berish uchun qo‘llanilishi ta’kidlanadi. Keyingi yillarda perifrazalarni tibbiy

jihatdan o‘rganayotgan tadqiqotchilardan biri A.Kobilova hisoblanadi. “Perifrazalarning tibbiy shakllanishi” nomli maqolasida perifrazalarning metaforik asosda paydo bo‘lishini aniqlaydi[6].

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida: PERIFRAZA, perifraz (yun. Periphrasis - tasviriy ibora; kinoya, istiora) - borlikdagi narsa va voqealarning nomini to‘g‘ridan-to‘g‘ri atamasdan, ularni bilvosita, ya’ni turli xil so‘z yoki tasviriy iboralar bilann ifodalash; majoziy ifodalardan biri (masalan, «sher» o‘rnida «hayvonlar shohi»; «paxta» o‘rnida «oq oltin», Alisher Navoiy o‘rnida «o‘zbek adabiy tilining asoschisi» iboralarining ko‘llanishi)[7]. Ensiklopediya va “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘atida keltirilgan ma’lumot deyarli bir xil: “**PARAFRAZA** (yun. *paraphrasis* - tasviriy ifoda, tasvir). Narsa, hodisani o‘z nomi bilan emas, ularni xarakterli belgisi-xususiyatlari asosida tasviriy usul bilan ifodalash; shunday ifoda. Mis., *dala malikasi* (makkajo‘xori), *zang‘ori olov* (gaz) kabi[8].

Xulosa qilib aytganda, perifraza tushunchasi jahon tilshunosligida o‘zbek tilshunosligiga qaraganda ertaroq paydo bo‘lgan. Keyinchalik bu atamaga yaqin bir necha terminlar paydo bo‘ldi, ammo ular o‘rtasida ma’lum bir farqli jihatlar mavjud. O‘zbek tilshunosligida bu tushuncha perifraza, parafraza, tasviriy ifoda deb nomlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Григорьев В.П. К проблеме перифразы // Сборник докладов и сообщений лингвистического общества. – Калинин, 1974. – С. 104 -114.

2. Kobilova A.B. Lingua-cultural aspects of medical periphrases of English language // Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN (Online): 2249-7137, Vol.12, Issue 05, 30-May 2022. P. 15-20.

3. De Mille, J. A. *Elements of Rhetoric*. New York: Harper & Brothers, Publishers, Franklin Square, 1878. –B.139-140

4.https://www.perseus.tufts.edu/hopper/text?doc=Perseus%3Atext%3A1999.04.0007%3Apart%3D4%3Achapter%3D61

5.https://www.merriam-webster.com/wordplay/words-meaning-miser

6. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти ТОШКЕНТ, ww.ziyouz.com кутубхонаси –B. 168

[1]Григорьев В.П. К проблеме перифразы // Сборник докладов и сообщений лингвистического общества. – Калинин, 1974. – С. 104

[2]Kobilova A.B. Lingua-cultural aspects of medical periphrases of English language // Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN (Online): 2249-7137, Vol.12, Issue 05, 30-May 2022. -B. 15

[3]De Mille, J. A. *Elements of Rhetoric*. New York: Harper & Brothers, Publishers, Franklin Square, 1878. –B.139-140

[4]https://www.perseus.tufts.edu/hopper/text?doc=Perseus%3Atext%3A1999.04.0007%3Apart%3D4%3Achapter%3D61

[5]https://www.merriam-webster.com/wordplay/words-meaning-miser

[6]Кобилова А. Б. Тиббий перифразаларнинг шаклланиш усуллари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. - 2023. - № 5/4. -Б. 82–83.

[7]«Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти ТОШКЕНТ, ww.ziyouz.com кутубхонаси –B. 168

[8]Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. — Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. www.ziyouz.com kutubxonasi. –B. 80